

Til oilalari va ularning kelib chiqish tarixi

**Oriental universiteti Filologiya fakulteti
Ingliz tili ta'lim yo'nalishi
301-guruuh talabasi
Shukrullayev Muhammadsodiq
O'qituvchi: Boboyeva Madina Xaydarovna
Filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya: Til oilasi kelib chiqishi jihatidan tuzilishi, o'zaro qarindoshligi va ba'zi leksikgrammatik belgilari bilan o'xshash tillar yig`indisidir. Til oilasi kelib chiqishi ko`ra aslida bir bobo tildan kelib chiqqan hamma tillarni o`z ichiga olganligi sababli juda yirik tillar yig`indisini tashkil qilib, yaxlit bir til oilasini tashkil etadi. Har bir oila o`z navbatida qarindoshligining yaqinlik darajasiga ko`ra bir necha bo`limlarga, guruhlarga va tarmoqlarga (shahobchalarga) ajratilishi mumkinligi haqida aytib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Bobo til, til oilalari, leksikgrammatik, tarmoqlar, genetik tipologiya, morfologik tipologiya, tarixiy - qiyosiy uslub, modernizatsiya, informatsion tip.

Tillar oilasini tashkil etuvchi tillarning bir-biriga yaqin yoki uzoq qarindoshligini tilshunoslikning qiyosiytarixiy metodi orqali aniqlaniladi. Dunyoda til oilalari tilshunoslik genetik tipologiyasi va tilshunoslik marfologik tipologiyasi orqali til oilalarini paydo bo`lish tarixidan, ya'ni kelib chiqishidan toki hozirgi kungacha bo`lgan

taraqqiyotini, ijtimoiy mohiyati va o`rnini, tillarni orasidagi o`xshashlikni va farqlarini, tillarning tarqalishini, tillar orasidagi idialektni ya'ni ma'lum bir tilning birqancha shaxsiy shevalarini, til oilalarini sodda tuzulishidan toki hozirgi kundagi modernizatsiyalashib (zamonavilashib) borayotganligini o`rganadi, tillarni bir-biridan ajratadi, tillarni rivojlanishida jamiyatdagi o`rnini taqqoslab doimo solishtiradi, tillarni yanada modernizatsiyalashtirip, o`zaro muomilada yengillashtirib boradi. Tilshunoslik genetikasi o`zi aslida nima ? Tilshunoslik genetikasi tillarni o`zaro qarindosh bo`lgan yoki qarindosh bo`lmagan tillarga ajratib beradi. Bir umumiyl manbadan tarqalgan tillarni qarindosh tillar deb, kichik bo`limlarga, guruhlarga, tarmoqlarga (shahobchalarga) va bitta yaxlit til oilagasiga

kiritadi. Tilshunoslik genetikasining ish uslubi tilshunoslikda “ tarixiy - qiyosiy uslub ” deb yuritiladi. Tillardagi har qanday o`xshashlik va farqlarini qiyoslab o`rganish asosida aniqlanadi. Qiyoslashda faqat tillarning bugungi holati emas, balki ularning tarixiy taraqqiyot yo`li dastlabki yozma yodgorliklar (manbalar) ham hisobga olinadi. Shuning uchun ham bu uslub “ tarixiy -qiyosiy uslub ” deb yuritiladi va u bir-biriga uch yo`nalishda bog`liq bo`ladi :

- 1.Tillarning qarindoshlik munosabatlarini isbotlash;
- 2.Tillarning dastlabki shakllari (ko`rinishlari)ni tiklash;
3. Tillarning tarixiy taraqiyot yo`linining ilmiy asosini isbotlashni o`z ichiga qamrab oladi.

Tilshunoslik morfologik tipalogiyasi esa nima ? O`zi umuman olganda Tilshunoslik morfologik tipologiyasi deb tilshunoslikda umumlashgan informatsion tasvir (tip)lar yordamida tasnif qilishiga, tillar grammatik tuzilishi nuqtaiy nazaridan turlariga aytildi. Bunda morfalogik tip yordamida o`rganilayotgan obyektlarning eng muhim strukturalarini (tarkiblarini) va funksional xususiyatlarini aniqlaydi. Morfalogiya tillarning so`z turkumlari, ularga xos grammatik ma`nolarni, har bir turkumga oid grammatik kategoriyalarni, yuzaga keltiruvchi grammatick shakl va grammatik ma`nolarni o`rganadi. Tillardagi har bir so`z turkumiga oid ichki tizimlarni shu turkumga oid morfologik kategoriylar tashkil etadi. Tilshunoslikda morfologiya tildagi so`zlarni qanday tuzulishi va shu tildagi boshqa so`zlar bilan bog`liqligi haqidagi tushunchalarni birlashtiradi va tildagi so`zlarning tuzilishini va qismlarini masalan: so`zning o`zagi, old, ko`plik, kelishik va so`z yasovchi qo`shimlarni o`rganadi. Umaman olganda tillar tuzilishining muhim belgilarini jamlab, har tomonlama taqqoslab ularni umumlashtiruvchi tilshunoslik bo`limidir. Tillardagi xususiyatlari bir xil bo`lganligini, ya`ni tillarni grammatik, fonologik, morfologik, fonetik, sintaksis va semantik tarafdan o`xshashligini yoki o`xshashemasligini solishtirib tillarni bo`limlarga, guruhlarga, tarmoqlarga va oilalarga ajratadi. Shuningdek morfologiya so`z turkumlarini, intonatsiyalarni (nutqdagi ohanglarni), urg`ularni va kontekstlarni, so`zlarning talaffuzi va so`z ma`nosini o`zgartirish yo`llarini ham aniqlaydi. Morfologiya tasnifi esa xususiyati va bir xil tipga mansubligiga ko`ra tasniflanadi. Yuqorida ma`lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki genetik orqali tillarni kelib chiqishini, tarixini va tillarni o`zaro bir biriga bog`liqligini, bo`lim, guruh, tarmoq va bir oiladan ekanligin aniqlaydi. Morfologiya orqali esa tillarni tuzulishini, rivojlanishin va qo`llanishi aniqlaydi.

UNESCO(inglizcha: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization — Birlashgan Millatlar Ta’lim, Bilim va Madaniyat Tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus tashkilotlaridan biri bo‘lib, ikkinchi dunyo urushidan so’ng, 1946-yil tashkil qilingan.)ning axborotiga ko`ra hozirgi kunda dunyoda jahon tillarining soni 6000 tadan ortiq tillar mavjud. Lekin hanuzgacha tillar va Tillar oilasining aniq miqdori aniqlanmagan, chunki turlituman tillar va bir turdagи tillarning lahjalari(shevalari)ning o`rtasidagi o`xshashlaiklar va aksincha tafovutlari ko`pdır. Tillarning rivojlanish darajasi va jamiyatda tutgan o`rni, ulardan foydalanuvchilarning adadi turlichadir. 100 yoki 150 insonlardan tashkil topgan tili ham, yuz millionli xalq muloqotidagi til ham alohida til hisoblaniladi. Biroq shu kungacha qator tillarning haqiqatdan mustaqil til yoki biror bir tilning lahjası ekanligi aniq belgilanmagan.

Zamonaviy tilshunoslik ma'lumotlariga ko`ra hozirgi kunda 20 dan ortiq til oilalari mavjud. Bularidan eng kattasi hozirga kunda Hindyevropa tillar oilasi eng mukammal ishlab chiqilgan til oilasidir. Lekin bu oilaga qaysi qabilalar asos solgani, ya’ni Hindyevropa tillar oilasining kelib chiqishi hanuzgacha nomalum bir sirligicha qolmoqda. Olimlar Hindyevropa tillar oilasining kelib chiqish to`g`risida juda ko`p bahslashishadi. Bazibir olimlar fikricha Hindyevropa tillar oilasining vatani Hindistonda desa, boshqa olimlar esa Hindyevropa tillar oilasining vatani O`rta Osiyoda bo`lgan desalar, yana boshqa bir olimlar esa Hindyevropa tillar oilasining vatani Markaziy Yevropada bo`lgan deb taxmin qilishadi. Ammo yuqoridagi olimlarning fikrlarida asosli dalillari yo`q. Olimlar Hindyevropa tillar oilasini oltita guruhga lavyan bo`limi rus, ukrain, belarus tillari; G`arbiy slavyan bo`limi chek, slovak, polyak, kashub, serbolujitsk tillari; Janubiy slavyan bo`limi bulg`or, makedon, serb, xorvat, sloven tillari tashlik topadi. German tillar guruhi uch kichik bo`limlarga bo`linadi bular : G`arbiy german bo`limi (bu bo`limga nemis, ingliz, niderland, afrikaans, idish, lyuksemburg, friz, golland tillarini o`z ichiga qamrab oladi.); Shimoliy german bo`limi; (daniya, island, norveg, farer, shved tillaridan iborat); Sharqiy german bo`limi (got, burgund, vandal, gepid, gerul kabi “o`lik tillar” dan tashkil topgan). Roman tillar guruhiga : galisiya, fransuz, ispan, portugal, provansal, italyan, katalan, rumin, moldavan, sardin tillari kiradi. Boltiq tillar guruhiga : latgal, latish, litva tillari kiradi. Hind (hindariy) tillar guruhiga : bengal, gujarat, maldiv, maratxi, nepal (gorkxal, kxas-kura), panjob, singal, sindhi, urdu, hind tillari kiradi. Eron tillar guruhiga : afg`on, baluj, dariy (forsi-kobuliy),

fors, kurd, osetin, pomir tillari (bartang, oroshor, rushan, sariko`l, shug`nal tillari), talish, tat, tojik, yag`nob tillari kiradi.

“Turkiy (Oltoy) tillar oilasi” G`arbiy xun tarmog`ining 1. Bulg`or guruhiga : chuvash tili kiradi. 2. O`g`iz guruhi 3 ta kichik bo`limlardan tashkil topgan : 1) o`g`iz - turkman bo`limiga : turkman va truxman tillar kiradi; 2) o`g`iz - bulg`or bo`limiga : gagauz va balqon turklar tillari kiradi; 3) o`g`iz -saljuq bo`limiga : ozarbayjon, turk, qrim-tatar tilining janubiy qirg`oq shevasi va urum tillari kiradi. 3. Qipchoq guruhi ham 3 ta kichik bo`limlardan tarkib tobgan : 1) qipchoq-polovetsk bo`limiga : qaray, qo`miq, qorag`ay-balqar, qrim-tatar tillari kiradi; 2) qipchoq-bulg`or bo`limiga : tatar va boshqird tillari kiradi; 3) qipchoq-no`g`ay bo`limiga : n`o`gay, qoraqalpoq, qozoq, o`zbek tilining qipchoq shevasi kiradi. 4. Qarluq guruhiga : o`zbek va uyg`ur tillari kiradi. Sharqiylar xun tarmog`ining : 1. Uyg`ur-o`g`uz guruhi ham 3 ta kichik bo`limlarga bo`linadi : 1) Uyg`ur-tukuy bo`limiga : tuva va tofa tillari kiradi; 2) Yoqut bo`limiaga : yoqut tillari kiradi; 3) Xakas bo`limiga : xalos, shor, cho`lim tatar, qamashi, oltoy tilining shimoliy shevasi, saqir-uyg`ur tillari kiradi; 2. Qirg`iz-qipchoq guruhiga : qirg`iz va oltoy tillari kiradi.

“Kavkaz tillar oilasi” bir necha guruhlarga bo`linib ketadi. Ular quyidagilar: 1. Shimoliy-G`arbiy Kavkaz tarmog`i. Bu tarmoq o`z navbatida 2 guruhga ajraladi: 1. Abxaz guruhi: abazin va abxaz tillari kiradi; 2. Cherkas (Adig) guruhi: adigey, kabardin - cherkas, ubix tillari kiradi. 2. Shimoliy-Sharqiylar Kavkaz tarmog`i. Bu tarmoq ham 2 guruhga bo`linadi: 1. Nax (Vaynax) guruhi: batsbiy, ingush, chechen tillari; 2. Dog`iston guruhi: avar, axvax, archin, bagvalin(bagulal), bejitin(kapuchin), budux, botlix, darg`in, didoy(sez), ginux, godoberi, gunzib, karatin, kriz(jek), lak, lazgin, og`ul, rutul, tabarasan, tindin, undin, xinalug,xvarshi,saxur(sax), chamalin tillari. 3. Janubiy Kavkaz (Iberiya-Kartvelian) tarmog`i. Bu tarmoq esa olimlar 3 guruhga ajratishadi. 1.Zan guruhi: megral (mingral, iver), chan(laz) tillari kiradi; 2.Iberiy guruhi: gruzin tillari. 3.Svan guruhi: svan tillari kiradi.

“Fin-ugor tillar oilasi” bu til oilasiga 2 ta guruh kiradi. 1.Fin tillar guruhi: fin, eston,karel, komi-permyak, udmurt, mariy, mordov, veps, vod, ijora, karel, liv, saam tillari kiradi; 2.Ugur tillar guruhi: venger (yoki madyar), mansi(vogul), xatniy (ostyak), ob-ugor tillari kiradi.

“Som-xom (Afroosiyo)tillar oilasi” bu til oilasiga arab sharqiylar mamlakatlari tillari kiradi. Odadta bu til oilasini 5 guruhga ajratishadi: 1. Semit (yoki som) tillari guruhi: amxar, arab (diealektlari bilan), ivrit, malta, mexri, suriy, tigray (tigriniya), tigre, xarari, oysor, shxaure tillari kiradi; 2. Qo`shit tillari guruhi: agav, afar-saxo (danakil), bedauyye (beja), irakov, oromo (galla), somali, saho tillari kiradi;

3.Berber tillar guruhi : kobil, shilx, tamazist, tuareg, rif tillari kiradi; 4. Chad-xom tillari guruhi: angar, angas, bata, kotoko (logone), matakam, mubi, xausa, xigi, sura, chuzgu tillari kiradi;

5. Arab tillar guruhi: bu guruhga qadimgi arab tillari kiradi. Bu tillar o`lik tillar xisoblanadi.

“Xitoy-tibet tillar oilasi” ikki guruhga bo`linadi; 1.Tay-xitoy tillar guruhi: xitoy, dungan, tay, loas, chjuan, vyetnam tillari kiradi. 2.Tibet-birma tillar guruhi: tibet va birma tillaridan iborat.

Yuqorida qayd etilgan til oilalaridan tashqari yana Afrika (Niger-Kongo) til oilasi, Avstraliya til oilasi, Avstroosiyo til oilasi, Avstroneziya til oilasi, Dravid til oilasi, Tangus-manchjur til oilasi, Paratay til oilasi va boshqa ko`plab til oilalari mavjud.

Tilshunoslik sohasida dunyoda juda ko`plab insonlar tadqiqotlar o`tqazishgan va hanuzgacha tadqiqotlar o`tqazib kelishmoqda. Hususan nemis olimlari A.V.Shlegel, V.Gumboldt, X.Shteyntal, A.Shleyxer, fransuz A.Martine, chehalik V.Skalichka, amerikalik E.Sepir hamda boshqa ko`plap insonlar. O`zbekistonda ham tilshunoslik bo`yicha keng ko`lamli ishlar olib borilmoq, tilshunos olimlarimiz

ko`plab tadqiqotlar o`tqazishmoqda. Xususan 1938-yil 1-yanvarda Toshkent shahrida tug`ilgan **Abduzuhur Abduazizov**. U o`zbekistonlik tilshunos, filologiya fanlari doktori, professor, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi. 1961-yilda Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutini tamomlagan, 1968-yildan 1981-yilgacha shu institutni ingliz tili fonetika va fonologiyasi kafedrasining mudiri bo`lib, 1981-1983-yillarda Kobul universitetining maslahatchi-professori, 1991-yilda Toshkent davlat universiteti qiyosiy-tipologik tilshunoslik kafedrasi mudiri bo`lib ish yuritgan. Ingiz va o`zbek tillari unli fonemalarining qiyosiy tahlili mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Umumiy va qiyosiy tilshunoslik, fonetika va fonologiya, oly o`quv yurti uchun chet tillarini o`qitish uslublariga oid darsliklar yozgan. 1.O`zbek tilining fonologiyasi va morfologiyasi (1992), 2. Tilshunoslikka kirish (1981). Ravshanxo`ja Rasulov istiqlol davri o`zbek tilshunosligining yirik vakili, sermahsul nazariyotchi olim, filologiya fanlari doktori (1989), professor (1990). Ravshanxo`ja Rasulov 1946-yilda Toshkent shahrida tug`ildi. 1965-yilda maktabni tugatdi. 1965-1970 yillarda O`zMU (sobiq ToshDU)ning o`zbek filologiyasi fakultetida o`qidi. 1975-yilda “Alpomish” dostonida so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatning ifodalanishi” mavzusida nomzodlik, yilda “O`zbek tilidagi holat fe’llari va ularning valentligi” mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qildi. Ravshanxo`ja Rasulov o`zbek tilshunosligining leksikologiya, semasiologiya,

leksikografiya, sintaksis, umumiy tilshunoslik, nutq madaniyati va o‘zbek tili fanlari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar yaratgan olimdir. Uning asosiy asarlari: 1.“O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentliklari”(1989). 2.“O‘zbek tili fe’llarining semantik strukturası”(1-qism, 1990). 3.“Leksikologiyani o‘rganish”(1992). 4.“O‘zbek tili fe’llarining semantik strukturası” (2-qism, 1993). 5.“O‘zbek tili sistem leksikologiya asoslari”(1995, 2021). 6.“O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati”(1997). 7.“O‘zbek tili fe’llarining ma’no tuzilishi”(2001, 2005, 2008, 2012). 8.“O‘zbek tili”(2004). 9.“Nutq madaniyati” (2004). 10.“O‘zbek tili”(2005, 2006, 2009, 2013). 11. “Umumiy tilshunoslik. Tilshunoslik tarixi. 1-qism”(2005). 12.“Umumiy tilshunoslik. Tilshunoslikning nazariy masalalari. 2-qism”(2006). 13.“Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”(hamkor, 2006, 2008, 2009, 2018, 2020). 14.“O‘zbek tili nazariy grammatika muammolari”(2019). 15.“Umumiy tilshunoslik” (2007, 2010, 2017, 2021, 2022) va boshqa ko’plab asarlar yozgan.

Filologiya fanlari nomzodi, professor Irisqulov Muhammadabbos Tursunovich 1938-yil 11-fevralda Toshkent shahrining O‘rda atrofidagi Eski yakkabozor mahallasida xizmatchi oilasida tavallud topgan. Davrning bo‘lajak olimi 1947-yilda Toshkent shahridagi 8-maktabda, hamda bir vaqtning o‘zida Glier nomidagi Respublika bolalar musiqa mакtabida tahsil olgan. M. Irisqulov 1957-yilda o‘rta maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent davlat chet tillari pedagogika institutining ingliz tili fakultetiga o‘qishga kiradi, 1962-yili institutni imtiyozli diplom bilan bitiradi. Talabalik kezlarida Muhammadabbos Irisqulov Osiyo va Afrika yozuvchilarining birinchi konferensiyasida, turli xalqaro kinofestivallar, anjumanlarda tarjimon va tarjimonlar guruhi rahbari sifatida faoliyat olib borgan. Taniqli olimning mehnat faoliyati katta qadamlar bilan boshlandi, ya’ni olim 1962-yili Hindistonga (Madras shtatining Neyveli shahri) ingliz va rus tillari tarjimoni sifatida ikki yillik xizmat safariga yuborildi. 1964-yili Hindistondagi xizmat safarini yakunlab, Toshkent davlat chet tillari pedagogika institutida o‘qituvchilik qila boshladi. Universitet rahbariyati ilmiga chanqoq va o‘z ustida tinmay ish olib borgan yosh o‘qituvchini malaka oshirishi uchun Moskva shahrining Birinchi chet tillari institutiga stajyor-tadqiqotchi sifatida yubordi. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshida ilk bor Respublika til o‘qitish markazi ochilgan kezlarda M.Irisqulov direktor etib tayinlangan. Olimning rahbarligida turli kitoblar nashr etilgan, xususan, “Marhamat”, “Tezkor rus tili”, “Inglizcha-o‘zbekcha/O‘zbekcha-inglizcha so‘zlashgich”, Arab Respublikasidan kelgan mutaxassis Ahmad Muhammad Abdulloh va arab tili o‘qituvchisi Kamola Qodirova bilan hamkorlikda “Arabcha-o‘zbekcha-englizcha lug‘at”, tarjima qilingan kitoblardan “100 buyuk

siymo”, hamda Buxoro va Termizning 2500 yillik tarixiga bag‘ishlangan “Amir temur in World History”, “Jaloliddin Manguberdi”, “Termez”, “Khiva, The City of A Thousand Domes” kabi kitoblar shular jumlasidandir. 2021-22 yillarda uchta ingliz tili darsligi hammualliflikda yozib, chop ettirildi, xususan: “Translation Theory and Practice”, “English for Tourism” va “English for Sports”. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng chet mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishi uchun chet tillariga katta ehtiyoj paydo bo‘ldi. Ushbu mas’uliyatli vazifani ado etishni burchi deb bilgan tilshunos olim “O‘zbekiston ingliz tili o‘qituvchilari uyushmasi (Uzbekistan Teachers of English Association, UzTEA)”ga asos soldi. Uyushmada ingliz tilini o‘qitishga qaratilgan turli xil seminarlar, jumladan, darslik va audio-videokassetalardan samarali foydalanishni o‘rgatish, ta’limning interfaol metodlaridan foydalanish, xorijlik mutaxassislarini jalb etish kabilar o‘tkazilgan. Uyushmaning yanada keng va samarali bo‘lishini ta’minalash maqsadida Britaniya Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilingan. 2000-yildan boshlab M. Irisqulov “O‘zbekiston ingliz tilin o‘qituvchilari uyushmasi”ga rahbarlik qila boshlagan. Markaz o‘z faoliyatini kengaytiganidan so‘ng, olim ushbu markaz filiallarini har bir viloyatda ochish taklifi bilan chiqdi va hozirgi kunda barcha viloyatlarda UzTEA filiallari tashkil etilgan. 2001-yildan boshlab UzTEAda rahbarlik qilishdan tashqari O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Ingliz filologiyasi dekani sifatida ham ishlay boshladi. 2002-yilda fidoyi va jonkuyar rahbar “Yilning eng yaxshi dekani” nominatsiyasi uchun e’lon qilingan ko‘rik-tanlovda g‘olib deya e’tirof etildi va diplom bilan taqdirlandi. Keyinchalik M. Irisqulov Ingliz tilini interfaol metod asosida o‘qitish kafedrasini mudiri lavozimida, hamda prorektor lavozimlarida ham faoliyat yuritgan. Muhammadabbos Irisqulovning Vatanimiz uchun qilgan xizmatlari hukumat tomonidan munosib taqdirlangan. Tilshunos olim va murabbiy “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi a’lochisi”(1998-yil 25-sentabr), “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”(2001-yil 24-avgust), “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil” esdalik nishoni (2006-yil 19-iyun), “Do‘stlik” ordeni (2006-yil 25-avgust), 2013-yil “Xalq ta’limi a’lochisi”, 2019-yil “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. M. Irisqulov o‘z faoliyati davomida ko‘plab xorijiy mamlakatlarda kasbiy safarda bo‘lgan. Birinchi sayohat Hindostonda bo‘lib o‘tgan bo‘lsa, keyinchalik tilshunos olim Moskva, Buyuk Britaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Malayziya va boshqa davlatlarda bo‘lgan. Shu o‘rinda aytish lozimki, shijoatli olim Yevropa va Osiyoning 30dan ortiq mamlakatlariga sayohat qilib, u yerdagi ta’lim tizimi, tarixi, madaniyati va urf-

odatlari bilan tanishishga muvaffaq bo‘lgan. Muhammadabbos Irisqulov o‘z kasbiy faoliyati davomida 100 dan ortiq magistr va aspirantlarga ilmiy rahbarlik qildi. Bundan tashqari, Urganch davlat universiteti chet tillari fakulteti o‘qituvchisi Masharipova Leninzaning “O‘zbek va AQSh madaniyatlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi PhD tadqiqot ishlariga rahbarlik qilmoqda. G‘ayratli va tinim bilmas olim hozirgi kungacha 20 dan ortiq kitoblar, 10 dan ortiq tarjima kitoblar va 100 ga yaqin maqolalar muallifidir. 2023-yil 11-fevral kuni Muhammadabbos Irisqulov tavalludining 85 yillik yubileyi O‘zbekiston davat jahon tillari universitetida tantanali nishonlandi. “Daraxt bir joyda ko‘karadi” deganlaridek, M.Irisqulov 60 yil davomida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida ishladi va hatto hozirgi kunda ham yoshlar kabi yangiliklarga intilgan holda o‘z kasbiy faoliyatini yuritib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, til muloqot vositasidir. Til orqali o`zaro munosabatlar o`rnataladi, tilsiz-tafakkur, takkursiz-til yo`q. Darhaqiqat tilning rivoji jamiyat taraqqiyotiga bog`liq. Tilsiz-jamiyat, jamiyatsiz-til yo`q. Har bir millatning qadriyati, madaniyati, urf-odati hamda o`z tiliga ega. Til oiladan boshlanadi. Har bir oilaning o`z tili mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. R.Rasulov, A. Sodiqov va A.Abduaizizovning “Umumiyl tilshunoslik” TOSHKENT 1981, O`qituvchi nashriyoti
2. M.Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish” TOSHKENT 2009, Yoshlar matbuoti bosmaxonasi
3. ZIYOUZ.com
4. Taniqliolimlar.uz